



“TASDIQLAYMAN”
Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh.A.Abdiev

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi**

BAYONI № 6

2023-yil 27-iyul

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiev Boshqarma boshlig‘i

Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining o‘rnibosarlari,
Komissiya a’zolari, boshqarma hamda
shahar va tuman statistika bo‘limi
boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

**“Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash” mavzusini
muhibama etish to‘g‘risida.**

(Sh.Abdiev, T.Sidikov, M.Salimov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, Sh.Abdiev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig‘i Sh.Abdievning “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash” mavzusi yuzasidan axboroti tinglandi.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta’minalash, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minalash hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergen shaxslarning himoya qilinishini ta’minalash lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurash muntazam va kompleks tarzda olib borilishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, ayniqsa davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni qamrab olishi kerak. Bu borada albatta katta e’tibor korrupsiyani oldini olish chora tadbirlariga qaratilishi bilan bir vaqda jinoiy-huquqiy choralar majmuiga ham e’tibor qaratilishi va mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar milliy qonunchilikimizning korrupsiyaga qarshi kurashuvchi jihatlarini jiddiy kuchayishiga olib keldi.

Korrupsion jinoyatlarni maxsus profilaktika qilish, bu boradagi maxsus qonunchilikni

takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish, mansabdar shaxslarni huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berish, shuningdek, boshqaruv faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlashni talab etadi. Bunday sharoitda, korrupsiyaga oid qonunchilikdagi salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish kerakligi to'g'risida ham to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, yig'ilish davomida statistika hisobotlari shakllarini onlayn qabul qilish va qayta ishslash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymasliklari yuzasidan barcha tizim xodimlari ogoh bo'lishi hamda tizimda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga nisbatan tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarini muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha boshqarma boshlig'i Sh.Abdievning "Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash" mavzusi yuzasidan bergen axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi

X.Xolmo'minov